

PEDAGOGLIK KASBINING TARAQQIY ETISHDA USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Turdimurodova Iroda Alisher qizi.

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Pedagogika yo'nalishi 1-P-2025guruh 1- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola ustoz-shogird an'analari pedagogik mohiyati va ularning tarbiyaviy jarayonlardagi o'rnini chuqur tahlil etishga qaratilgan. Unda qadimgi an'analari asosida shakllangan ustoz-shogird munosabatlarining tarixiy ildizlari, axloqiy-ruhiy qadriyatlarni uzatishdagi o'ziga xosligi va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ustoz-shogird an'analari, pedagogik mohiyat, tarbiyaviy salohiyat, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, an'anaviy ta'lim, zamonaviy pedagogika, ustozning roli.

Abstract: This article is aimed at an in-depth analysis of the pedagogical essence of the teacher-student traditions and their place in the educational process. It highlights the historical roots of the teacher-student relationship formed on the basis of ancient traditions, its uniqueness in transmitting moral and spiritual values, and its importance in the modern education system.

Keywords: teacher-student traditions, pedagogical essence, educational potential, spiritual values, moral education, traditional education, modern pedagogy, the role of the teacher.

Аннотация: Целью данной статьи является глубокий анализ педагогической сущности традиций взаимодействия учителя и ученика и их места в образовательном процессе. В ней освещаются исторические корни отношений учителя и ученика, сформировавшихся на основе древних традиций, их уникальность в передаче нравственных и духовных ценностей и их значение в современной системе образования.

Ключевые слова: традиции взаимодействия учителя и ученика, педагогическая сущность, воспитательный потенциал, духовные ценности, нравственное воспитание, традиционное образование, современная педагогика, роль учителя.

Kirish. Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e'tibor har qachongacha nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir qiluvchi ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an'alaridan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ham ustoz-shogirdlik an'analari ko'plab mehnat jamoalarida, shu jumladan, davlat idoralarida qo'llanib keladi. Biroq, hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi.

Asosiy qism. Ustozlik – bu yoshlarni har tomonlama tarbiyalashdagi bir yo'nalishi hisoblanadi. Lekin, bu an'ana oila, maktab kabi turli mazmundagi yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy institutlarning ta'lim-tarbiyaviy ta'sirlarni davomchisi sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham ustoz-shogirdlik faoliyatlarida oila, maktab kabi jamoalar faoliyatlari bilan hamkorlik amalga oshirilib, bir-birlarining ta'sir qilish kuchlari mustahkamlanib boradi. Ijtimoiy hayot tajribasining tasdiqlashicha insoniyatning bo'lg'usi ijtimoiy-siyosiy faolligi, ta'lim-tarbiyani avloddan-avlodga yetkazish asosida amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Bunday yuqori darajadagi tasdiqlanishlar ustozlik faoliyatini ham yuqori darajada baholash zarurligini ifodalaydi. Ustozlarning faoliyati

shogirdlarda vaqt ko'rsatkichlarni umum davlat miqyosida amalga oshirishga o'rnatishdan iborat. Bu jarayonda esa vaqtni qanday taqsimlash masalasini hal qilishda ustoz ko'rsatmalari asosiy o'ringa ega. Ustoz-shogird an'alarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o'rin tutadi:

- onglilik va faollik, ya'ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlarini, mohiyatini ongli tarzda to'liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqi yo'lida faollik bilan harakat qilish;

- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;

- ta'lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog'liqligini inobatga olish;

- mutaqillikka, ijodiy izlanishga yo'naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligini hisobga olish;

- uqitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab qo'yilgan anik mantiqiy tartibga ega bo'lishi;

- shogirdning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Pedagogik ta'limot g'oyalariga ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita tinimsiz o'z ustida ishlash va orkali shakllanadi. "Ustoz-shogird" an'anasi esa o'quvchilar, talaba- yoshlar hamda yosh pedagoglarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, pedagogik faoliyat jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirdidagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e'tibor avvalgiga nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratilmoqda. Tarixiy sharoitlarining o'zgarishi borasida to'plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o'zgarib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Malikova. Sharq mamlakatlarida "ustoz-shogird"lik an'alarining shakllanishi va rivojlanishi.

2. O'Q Tolipov. "Ustoz - shogirdlik qadriyatlari"-risola;Toshkent: "Nizomiy nomidagi TDPU"-2015.
3. Rasulov, U. M. —Ustoz-shogird an'analari va zamonaviy ta'lim jarayoni. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.
4. Jurayev, R. —O'zbekiston xalq ta'limi tizimida ustoz-shogird munosabatlarining o'rni. – Toshkent:
5. Faxriddin, Rizouddin ibn. Ilmning o'n to'rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018

